

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**G'ULAMOV SHAVKAT MAXMUDOVICH**

**YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI  
SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI  
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philosophical Sciences**

**G‘ulamov Shavkat Maxmudovich**

Yoshlarning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil) ..... 3

**Гуламов Шавкат Махмудович**

Роль цифровых технологий в формировании духовно-нравственного мировоззрения молодежи (социально-философский анализ) ..... 21

**Gulamov Shavkat Maxmudovich**

The role of digital technologies in shaping the spiritual and moral worldview of youth (a socio-philosophical analysis) ..... 42

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**G‘ULAMOV SHAVKAT MAXMUDOVICH**

**YOSHLARNING MA‘NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI  
SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI  
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fal1372 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Namangan davlat universiteti veb-sahifasida (namdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ismoilov Temurbek Islomovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nazarov Nasriddin Ataqulovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Azimov Ulug‘bek Abduxalilovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
2025 yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi.

**R.T. Jo‘rayev**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
siyosiy fanlar doktori (DSc),  
professor

**Q.O. Maxkamov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
sotsiologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD), dotsent

**M.I. Ismoilov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sodir bo'layotgan axborotlashish jarayonlari globallashtirish sharoitida yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda, davlat boshqaruvini raqamlashtirishda, elektron ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishda, onlayn virtuallashtirish xodisalarining ma'naviy-axloqiy jihatlarini takomillashtirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatda axborotlashish va raqamlashtirishni o'sib borishi, umuminsoniy qadriyatlar paradigmasida yangi qiymat yo'nalishlari raqamli muloqot, raqamli konsolidatsiya, raqamli ijodkorlik ko'nikmalarining rivojlanishi insonning jamiyatdagi o'rnini, ijtimoiy munosabatlardagi xulq-atvori va barkaol shaxs shakllanishidagi muhim omil bo'lib qolmoqda. Yoshlar, ayniqsa, turli raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari va ijtimoiy platformalar orqali yangi axborot oqimlari bilan muntazam kommunikativlik jarayonlari zamonaviy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishiga dezinformatsiya, kiberbulling, ijtimoiy mahdudlik, virtual qaramlik va boshqa ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarni oldini olish ijtimoiy-ma'naviy zaruriyat sifatida qaralmoqda.

Dunyoda yoshlar madaniy tafakkurini yuksaltirish va unda mediamadaniyatni roli, axborot savodxonligini rivojlantirishning axloqiy jihatlarini ochib berish, raqamli dunyoda an'anaviy qadriyatlar transformatsiyasi, virtual reallikka doir onlayn platformalarni takomillashtirish, inson virtualizatsiyasining ijtimoiy xulqqa ta'siri oldini olishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli dunyoda innovatsion texnologiyalarning yoshlar axloqiy tarbiyasidagi roli, sun'iy intellektning madaniy ta'sirini aniqlash, borototexnika xizmat turlarini ortib borishi orqali kelib chiqadigan muammolarni oldini olishga qaratilgan loyihalar e'tiborga dolzarb ahamiyatga ega. UNESCOning "Media and Information Literacy Curriculum for Teachers" dasturi o'qituvchilarning medialarni tahlil qilish, xabarga tanqidiy yondashish, raqamli platformalarda axloqiy me'yorlarga rioya etish ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilsa. "Digital Education Action Plan" dasturi yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish, shu bilan birga, zamonaviy ta'lim mazmunini axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda.

Dunyoda yoshlar madaniy tafakkurini yuksaltirish va unda mediamadaniyatni roli, axborot savodxonligini rivojlantirishning axloqiy jihatlarini ochib berish, raqamli dunyoda an'anaviy qadriyatlar transformatsiyasi, virtual reallikka doir onlayn platformalarni takomillashtirish, inson virtualizatsiyasining ijtimoiy xulqqa ta'siri oldini olishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqamli dunyoda innovatsion texnologiyalarning yoshlar axloqiy tarbiyasidagi roli, sun'iy intellektning madaniy ta'sirini aniqlash, borototexnika xizmat turlarini ortib borishi orqali kelib chiqadigan muammolarni oldini olishga qaratilgan loyihalar e'tiborga dolzarb ahamiyatga ega. UNESCOning "Media and Information Literacy Curriculum for Teachers" dasturi o'qituvchilarning medialarni tahlil qilish, xabarga tanqidiy yondashish,

raqamli platformalarda axloqiy me'yorlarga rioya etish ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qilsa. "Digital Education Action Plan" dasturi yoshlar o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish, shu bilan birga, zamonaviy ta'lim mazmunini axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qilmoqda. Bolalar va yoshlarni onlayn tahdidlardan himoya qilish, noxush ma'lumotlarga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish uchun "We Protect Global Alliance" kabi xalqaro tashabbuslar yo'lga qo'yilmoqda.

O'zbekistonda yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasini rivojlantirish va takomillashtirish borasida bir qator izlanishlar hamda loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, raqamli savodxonlikni oshirish, yoshlarning zamonaviy texnologiyalar yordamida bilim olishini rag'batlantirish ustuvor maqsad sifatida belgilab berilgan. Yoshlarning raqamli texnologiyalar bo'yicha ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash "davr talabidan kelib chiqib, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'rgatadigan monomarkazlar, IT va texnoparklar bunyod etilishi"<sup>1</sup> hamda ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan dasturlar joriy etilmoqda. Yurtimizda tashkil etilgan IT-parklar va texnologik markazlar yoshlarning startap loyihalari, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik hamda umuman raqamli ekotizimdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlamoda.

Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Xalqchil islohotlar xalqimiz manqaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2023. -B. 355. (392)

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ma'naviy-axloqiy tarbiya hamda shaxs dunyoqarashini shakllantirish masalalari qadimgi antik davr mutafakkirlaridan boshlab turli falsafiy konsepsiyalar doirasida keng ko'rib chiqilgan. Jumladan, Platon, Aristotel, Suqrot, Seneka, Epiktet<sup>2</sup> shular jumlasidandir. Platon jamiyatda adolatli tuzum barpo etishning asosi sifatida shaxsning axloqiy barkamolligini e'tirof etgan va bu borada tarbiya jarayonining ijtimoiy hamda shaxsiy omillarga bog'liqligini ta'kidlagan. Aristotel saodatga erishishida odat, tarbiya, fazilat kabi tamoyillar muhimligini ko'rsatib bergan, shu bilan birga ma'naviyatni shakllantirishda ijtimoiy muhitning o'rni muhimligi haqida so'z yuritgan. Suqrot ma'rifiy suhbatlari orqali insonning o'z-o'zini anglash jarayoniga turtki beruvchi uslubni taklif qilib, har qanday intellektual yoki axloqiy tafakkurning ildizi avvalo shubha va savoldan boshlanishini uqtirgan. Seneka xatlarida shaxsiy axloq, adolat va ijtimoiy mas'uliyat kabi mavzularni chuqur tahlil qilgan holda, yosh avlodni yuksak ma'naviy fazilatlarga yetaklashda oilaviy va jamiyatdagi tarbiya muhiti ayni paytda muhim omil ekanini qayd etgan. Epiktet fikricha, har qanday ijtimoiy tuzumda ham insonning ichki ma'naviy holati uning haqiqiy erkinlik darajasini belgilaydi, shu bois, shaxsning ma'naviy immunitetini mustahkamlash har qanday tahdidga qarshi eng samarali chora sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

Muammoning o'rganilganlik darajasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashining shakllanishi va takomillashuvida ilmiy-falsafiy qarashlar tarixan uzluksiz rivojlanib kelgan. Xususan, o'rta asr Sharq olimlari ta'lim-tarbiya, ong va bilimning turli nazariy-metodik jihatlarini keng ko'lamda yoritganlar. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Rushd, Alisher Navoiy<sup>3</sup> kabi faylasuf olimlar mavzu doirasida o'z yondashuvlarini bayon etishgan. Forobiy ma'naviy komillik va ideal jamiyat masalalariga to'xtalar ekan, insonlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hamda aqliy rivojlanish yordamida barkamol shaxsni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi. Ibn Sino esa ilm va amaliy falsafa uyg'unligi orqali har bir insonda axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, axloq normalariga sodiq qolish tarbiyaning asosiy negizi ekanini qayd etadi. Beruniy tabiat va jamiyat munosabatlarini o'rganish asnosida yoshlar dunyoqarashini kengaytirish, ularni bilishga undash ma'naviy yuksalishning zarur omili ekanini e'tirof etgan. Ibn Rushd o'z risolalarida ijtimoiy tafakkur va aqliy tarbiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni falsafiy nuqtayi nazardan izohlab, shaxslar faoliyatining ma'naviy asoslarga tayangan holda olib borilishiga alohida e'tibor qaratadi. Alisher Navoiy o'zining falsafiy-badiiy asarlarida shaxsning yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan

---

<sup>2</sup> Платон. Государство / Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н Трубетский проект, 2015. – 398 с.; Аристотель. Политика. – Москва: Издательство АТС, 2022. – С. 384.; Суриков, И. Е. Сократ. – Москва: Молодая гвардия, 2011. – 384 с.; Луций Анней Сенека. Нравственные письма к Луцилию. Перевод и примечания С.А.Ошерова. Москва: Наука, 1977. 80 с.; Столяров А. Эпиктет // Философская антропология. 2021. – Т. 7. №. 2. – С. 251-271.

<sup>3</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.; Абу Али ибн Сино. Гибкий рисолалар. – Тошкент: Фан. – 1987. – 322 б.; Игорь Тимофеев, Бируни. – М.: «Молодая гвардия», 1988. – 304 с.; Averroes. Tahafut al-tahafut. E-text conversion Muhammad Hozien, 1981. – 472 p. Алишер Навои. Избранное.2016 Ўзбекистон НМИУ 978-9943-28-470-8

g‘oyalarni ishlab chiqdi, ma’naviy o‘zini-o‘zi takomillashtirish, aql va ma’rifat muhimligini axloqiy taraqqiyot asosi sifatida ta’kidladi.

Raqamli texnologiyalar va ma’naviy-axloqiy tarbiya kesishgan nuqta bir qator xorijiy olimlarning izlanishlar Sh. Turkle, M. Kastells, H. Reyngold, Z. Bauman, U. Gasser, J. Palfrey, H. Jenkins<sup>4</sup> kabi olimlar shular qatoriga kiradi. Sh. Turkle virtual muhitning jamiyatda axloqiy me’yorlarni qayta talqin etish jarayoniga ta’siri, M. Kastells tarmoq jamiyatining akseleratsiya xususiyati, H. Reyngold raqamli kommunikatsiyada axloqiy tsenzura muammolari kabi masalalarni tadqiq etishgan. Shu bilan birga, Z. Bauman raqamli etika, virtual makondagi ijtimoiy munosabatlar, U. Gasser, J. Palfrey yoshlar ongida individual va kollektiv o‘zlikni anglash jarayonlari, texnologik modernizatsiya fonida shaxsning ijtimoiy adaptatsiyasi singari konseptual masalalarni o‘rganishgan. H. Jenkins axloqiy barkamollikka erishishda innovatsion uslublarni qo‘llash orqali yoshlar ma’naviy olamini boyitish g‘oyalari raqamli pedagogika, psixologiya va falsafaning yangi yo‘nalishlarini shakllantirgan.

Raqamli texnologiyalar zamonaviy jamiyatda turli yo‘nalishlarda chuqur integratsiya jarayonlarini keltirib chiqarmoqda. Bir qator olimlar raqamli kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy ongi va ma’naviy-axloqiy qarashlari rivojlanishiga ta’sirini aniqlashga doir tadqiqotlari A.D.Dibraev, Ye.V.Radevich, L.N. Belonojko, L.G.Isaeva<sup>5</sup> va boshqa olilar ishlarida ko‘rinadi. I. A. Bogdanov<sup>6</sup> maktab va oliy ta’lim tizimida raqamli platformalardan foydalanishning axloqiy jihatlarini tahlil qilib, ularni tarbiya jarayoniga integratsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. A.V. Kazakov<sup>7</sup> internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumot oqimining yoshlarning qadriyatlar sistemasini shakllantirishga ta’sirini o‘rgangan. L.S. Tixomirov<sup>8</sup> tomonidan axborot xavfsizligi, yoshlarning ma’naviy immuniteti va digital etika tushunchasi bo‘yicha tub nazariy xulosalar ilgari surilgan. I.G. Yermolayev<sup>9</sup> esa

---

<sup>4</sup> Sherry Turkle. Reclaiming Conversation: The Power of Talk in a Digital Age. Penguin Press, 2015. – P. 112.; Manuel Castells. The Rise of the Network Society. Wiley-Blackwell, 2010. – P. 47.; Howard Rheingold. Net Smart: How to Thrive Online. The MIT Press, 2012. – P. 81. Zygmunt Bauman. Liquid Modernity. Polity Press, 2000. – P. 15.; Urs Gasser and John Palfrey. Born Digital: Understanding the First Generation of Digital Natives. Basic Books, 2008. – P. 100.; Henry Jenkins. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. The MIT Press, 2009. – P. 36.

<sup>5</sup> Дибраев Афсаладдин Дибирахмедович. Роль духовно-нравственного наследия в формировании современного гражданского общества: диссертация кандидата философских наук: 09.00.11.- Махачкала, 2006. - 145 с.: Радевич Екатерина Владимировна “Глобализация культурно-информационного пространства как фактор нелинейного развития современных обществ”. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Минск. 2022; Белоножко Лидия Николаевна. Средства массовой информации в системе духовно-нравственного развития личности. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. Тюмень. 2017.; Исаева Людмила Георгиевна. Средства массовой информации как фактор формирования духовной культуры российского общества. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. Уфа. 2005.

<sup>6</sup> Богданов И.А. Цифровые технологии в современном образовании: этические аспекты. – Москва: Наука, 2017. – С. 42.

<sup>7</sup> Казаков А.В. Интернет-коммуникация и трансформация ценностей молодежи. – М.: Высшая школа, 2018. – С. 59

<sup>8</sup> Тихомиров С. Цифровая этика и информационная безопасность. – М.: Юрайт, 2019. – С. 25.;

<sup>9</sup> Ермолаев И.Г. Междисциплинарный подход к исследованию цифровой среды. – М.: Университетская книга, 2020. – С. 70.;

raqamli makonda paydo bo'layotgan ijtimoiy-ma'naviy muammolarni fanlararo yondashuvda tahlil qilib, yoshlar ongida shakllanayotgan zamonaviy dunyoqarash xususiyatlarini qayd etgan.

O'zbekiston ilm-fanida milliy an'ana va qadriyatlarning saqlanishi, ular negizida shakllanayotgan yangicha ma'naviy qarashlar, axloq tushunchasiga oid qarashlar A. Erkayev, E. Umarov, M. Abdullayev, K. S. To'rayev, F. G'. Bozorova, J. K. Juraqulov, G. A. Karimov<sup>10</sup> kabi olim va tadqiqotchilarning izlanishlarida asosiy o'rinni egallaydi. Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi tizimining virtual targ'ibot resurslari samaradorligini oshirish, F.G'. Bozorova Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasini, J.K. Juraqulov axborotlashgan jamiyatda inson ma'naviy borlig'ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi, G.A. Karimova O'zbekistonda axborotlashgan jamiyat shakllanishining milliy axloqiy jihatlari kabi masalalarni tadqiq etishgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbekiston oliy ta'limi jarayonini modernizatsiyalash va xalqarolashuvini rivojlantirish" (2022-2026 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning roli va ta'sir mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

axborotlashgan jamiyatda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish;

texnologik innovatsiyalar va virtual kommunikatsiyalar sharoitida yoshlar axloqiy me'yorlarini shakllantirish zamonaviy jamiyatda yoshlarning aksiologik munosabatini rivojlantirish;

shaxs ma'naviy-axloqiy qiyofasining ijtimoiy-madaniy texnologiyalarga asoslanishi ijtimoiy qadriyatlar tizimida konsyumer xususiyatlarni rivojlantiruvchi natijador omil ekanligini asoslash;

sotsiumda shaxs sotsializatsiyasini ta'minlovchi ijtimoiy o'zaro ta'sir xususiyatlari orqali jamiyatda virtual-kommunikativ makonni o'z ichiga olgan yangi ijtimoiy voqelikni shakllanishiga olib kelishini mantiqiy tahlil qilish.

---

<sup>10</sup> A. Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009. – 416.; E. Umarov, M. Abdullayev. Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Cho'lpon, 2006. – 128 bet; K.S. To'rayev. Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi tizimining virtual targ'ibot resurslari samaradorligini oshirish. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 56 b.; F.G'. Bozorova. Sharq va G'arb madaniyatida axloqiy-estetik qarashlar dialektikasi (Abu Homid G'azzoliy va Immanuel Kant falsafiy ta'limotlari misolida). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 81 b.; Juraqulov Jamol Komilovich. Axborotlashgan jamiyatda inson ma'naviy borlig'ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 49 b.; Каримова Гулзирахон Аҳмадбек кизи. Ўзбекистонда ахборотлашган жамият шаклланишининг миллий ахлоқий жиҳатлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 40 б.

**Tadqiqotning obyekti** yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonidagi raqamli texnologiyalarning tarbiyaviy ta'sir mexanizmlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonida raqamli texnologiyalar, onlayn va virtual platformalar faoliyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada dialektik, analiz va sintez, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

axborotlashgan jamiyatda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish mavjud qadriyatlar dinamikasida milliy madaniy o'ziga xosliklar bilan global texnogen muhit o'rtasida ziddiyat va uyg'unlik jarayonini aks ettirishi falsafaning sabab va oqibari tamoyillari asosida ochib berilgan;

texnologik innovatsiyalar va virtual kommunikatsiyalar sharoitida yoshlar axloqiy me'yorlarini shakllantirish zamonaviy jamiyatda yoshlarning aksiologik munosabatini rivojlantirish, jamiyat barqaror taraqqiyotida aksiologik ierarxiya (ong-qadriyat-faoliyat birligi) ning milliy xususiyatlari ilmiy asoslangan;

raqamli dunyoda yoshlar aksiologik dunyoqarashining determenistik paradigmalari virtual muloqotning yoshlar ongidagi gnoseologik xususiyatlari ta'sirida shaxs ma'naviy-axloqiy qiyofasining ijtimoiy-madaniy texnologiyalarga asoslanishi ijtimoiy qadriyatlar (bilim, ko'nikma, me'yor) tizimida konsyumer (axborotni qabul qilish) xususiyatlarni rivojlantiruvchi natijador omil ekanligi asoslangan;

globallashuv sharoitida axborot makonining kengayib borishi jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarib, sotsiumda shaxs sotsializatsiyasini ta'minlovchi ijtimoiy o'zaro ta'sir xususiyatlari (harakatchanlik, ijodkorlik intellektuallik) orqali jamiyatda virtual-kommunikativ makonni o'z ichiga olgan yangi ijtimoiy voqelikni shakllanishiga olib kelishi mantiqiy dalillangan yangi metodologik takliflar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quidagilardan iborat:**

raqamli texnologiyalarni ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish va yoshlarning axloqiy refleksiyasini shakllantirishda interaktiv vositalardan foydalanish mexanizmlari takomillash;

virtual muhitda yoshlar ongida axloqiy-his tuyg'ularni uyg'otadigan pedagogik dasturlar, interaktiv o'quv resurslari hamda o'yinli metodlardan foydalangan holda ma'naviy immunitetni rivojlantirish uslublari ishlab chiqish;

raqamli platformalar orqali yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini baholash va rivojlantirish bo'yicha indikator me'zonlarini aniqlash.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** xalqaro va respublika miqyosdagi OAK ro'uxatiga kirgan ilmiy jurnal va konferensiyalarda maqola va ma'ruza shaklida muhokamasi, xulosa, taklif va tavsialarning amaliyotga joriy yetilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda raqamli texnologiyalar ta'sirida yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni falsafiy kategoriya va tamoyillar (aksiologiya, ontologiya, gnoseologiya) asosida chuqur tahlil etiladi. Bu jarayonda raqamli madaniyat, raqamli etika, axborot filtrlash, kommunikativ mas'uliyat kabi tushunchalar dialektik usulda ko'rib chiqilib, ma'naviy barkamollik va texnologik taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning nazariy-model asoslari kengaytiriladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan integrativ-falsafiy metodologiya pedagogika, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar kesishmasida ko'p qirralik mezonlarga tayangan holda raqamli xavfsizlik hamda axloqiy me'yorlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalardan ilmiy muassasalar va innovatsion markazlarning yo'l xaritasi hamda oqilona samarali yechimlarni takomillashtirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda, "Respublika ma'naviyat va milliy g'oya markazi" faoliyatida, "Falsafa", "Axloqshunoslik", "Madaniyatshunoslik", "Tarbiya" kabi fanlarni o'qitishda, madaniy-ma'rifiy muassasalar, mahallalarda axloqiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning roli ijtimoiy-falsafiy tahlili asosida:

axborotlashgan jamiyatda yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish mavjud qadriyatlar dinamikasida milliy madaniy o'ziga xosliklar bilan global texnogen muhit o'rtasida ziddiyat va uyg'unlik jarayonini aks ettirishi falsafaning sabab va oqibat tamoyillari asosidagi takliflar va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Yoshlar" ijodiy birlashmasi" AJ, "Yoshlar" teleradiokanalida 2024-yil davomida "Press klub" ko'rsatuvida va turli ijtimoiy roliklarni samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Yoshlar ijodiy birlashmasi aksiyadorlik jamiyatning 2025-yil 25-maydagi 14-02-78-son dalolatnomasi). Natijada, jamiyatda axborot va bilimni rivojlantirish industrial jamiyatning asosi sifatida shaxsning intellektual cha ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishi jamiyatda bilimga asoslangan iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qilgan;

texnologik innovatsiyalar va virtual kommunikatsiyalar sharoitida yoshlar axloqiy me'yorlarini shakllantirish zamonaviy jamiyatda yoshlarning aksiologik munosabatini rivojlantirish, jamiyat barqaror taraqqiyotida aksiologik ierarxiya (ong-qadpiyat-faoliyat birligi) ning milliy xususiyatlarga asoslanishi ilmiy asoslanishiga oid taklif va xulosalaridan O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi tomonidan o'tkazilgan targ'ibot faoliyati, saylovoldi dasturlarini amalga oshirishda, "Vatan kelajagi yoshlar qo'ylida" kabi loyihasi doirasida Namangan viloyati kengashining tuman va shahar tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan targ'ibot jarayonlarida keng foydalanilgan (O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasining 2025-yil 16-maydagi 01-06/143-son dalolatnomasi). Natijada, yoshlar tarbiyasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga va raqamli asrga mos, barkamol avlodni shakllantirish,

partiyaning siyosiy faoliyatidagi maqsadlariga erishishda katta nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan;

globallashuv sharoitida axborot makonining kengayib borishi jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqarib, sotsiumda shaxs sotsializatsiyasini ta'minlovchi ijtimoiy o'zaro ta'sir xususiyatlari (harakatchanlik, ijodkorlik intellektuallik) orqali jamiyatda virtual-kommunikativ makonni o'z ichiga olgan yangi ijtimoiy voqelikni shakllanishiga olib kelishi mantiqiy dalillangan yangi metodologik taklif-tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Yoshlar" ijodiy birlashmasi" AJ, "Yoshlar" teleradiokanalida 2024-yil davomida "Press klub" ko'rsatuvida va turli ijtimoiy roliklarni samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Yoshlar ijodiy birlashmasi aksiyadorlik jamiyatning 2025-yil 25-maydagi 14-02-78-son dalolatnomasi). Natijada, jamiyatda axborot va bilimni rivojlantirish industrial jamiyatning asosi sifatida shaxsning intellektual cha ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishi jamiyatda bilimga asoslangan iqtisodiyotni mustahkamlashga xizmat qilgan;

raqamli dunyoda yoshlar aksiologik dunyoqarashining determenistik paradigmalari virtual muloqotning yoshlar ongidagi gnoseologik xususiyatlari ta'sirida shaxs ma'naviy-axloqiy qiyofasining ijtimoiy-madaniy texnologiyalarga asoslanishi ijtimoiy qadriyatlar (bilim, ko'nikma, me'yor) tizimida konsyumer (axborotni qabul qilish) xususiyatlarni rivojlantiruvchi natijador omil ekanligiga doir ilmiy xulosalaridan O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi tomonidan o'tkazilgan targ'ibot faoliyati, saylovoldi dasturlarini amalga oshirishda, "Vatan kelajagi yoshlar qo'yilida" kabi loyihasi doirasida Namangan viloyati kengashining tuman va shahar tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan targ'ibot jarayonlarida keng foydalanilgan (O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasining 2025-yil 16-maydagi 01-06/143-son dalolatnomasi). Natijada, yoshlar tarbiyasida yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga va raqamli asrga mos, barkamol avlodni shakllantirish, partiyaning siyosiy faoliyatidagi maqsadlariga erishishda katta nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari asosida 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKsining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop yetish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (4 ta respublika va 6 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, to'qqiz paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning asosiy qismi 123 betni tashkil qiladi.

#### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika

fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning maʼnaviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslar”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli texnologiyalarning inson ongiga, ijtimoiy munosabatlarga hamda umuman jamiyat taraqqiyotiga falsafiy taʼsiri, texnologik taraqqiyotning milliy va umuminsoniy qadriyatlarda namoyon boʻlishi ochib berilgan boʻlib, insoniy qadriyat ushbu tizimlarda samaradorlik va funktsionallik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar tushunchasining bevosita mazmun-mohiyatini izohlab, uning texnik, ijtimoiy, madaniy va falsafiy manbalarini ochib beradi. Bunda zamonaviy axborot kommunikatsion vositalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, virtual makon va haqiqiy reallikning qorishishi, inson ongi va ong ostidagi jarayonlarga raqamli texnologiyalar kirib kelishi natijasida yuzaga keladigan yangicha madaniy kontekstlar kabi masalalar atroflicha tahlil qilinadi. Buning natijasida, insonning zamonaviy texnologiyalar bilan oʻzaro munosabati, ong va maʼnaviyatning texnologik jarayonlar taʼsirida shakllanishi, shu bilan birga, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning qayta talqin qilinishi bobning markaziy mavzusiga aylanadi.

Tadqiqot ishimizda raqamli texnologiyalar keng maʼnoda yaʼni, dasturiy taʼminot yoki qurilmalar majmui sifatida, balki insonning maʼnaviy olamiga, bilish jarayonlariga va ijtimoiy munosabatlariga chuqur taʼsir etadigan omil sifatida falsafiy yondashilgan. Shu nuqtada anʼanaviy falsafiy yondashuvlar, masalan, ekzistensializm, fenomenologiya va ijtimoiy konstruktivizm, raqamli inqilob davrida qayta koʻrib chiqilib, “raqamli dunyo” tasavvurining shakllanishi, virtual haqiqatda vaqt va makon tushunchasining oʻzgachaligi va bu oʻzgarishlarning insonga qiladigan taʼsiri chuqur falsafiy bahs mavzusi ekanligi asoslandi. «Soʻnggi oʻn yillikda, ayniqsa, moddiy sohadagi taraqqiyot taʼsirida dunyo har tomonlama kamolotga erishdi, degan fikrning bemaʼniligi yaqqol namoyon boʻldi va ular insonga maʼnaviy kamolot yoʻllarini koʻrsata olmaydi, maʼnaviy barkamollik moddiy taraqqiyot bilan bogʻliq emas, balki qalblarimizda oʻz oʻrnini egallagan narsadir...»<sup>11</sup> Mazkur bobda raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning maʼnaviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslari chuqur tahlil qilinadi. Avvalo, “maʼnaviy-axloqiy dunyoqarash” tushunchasi zamonaviy falsafa va sotsiologiya nuqtai nazaridan oʻrganiladi hamda uning tarkibiy elementlari, ijtimoiy tabiatini aniqlashga alohida eʼtibor qaratiladi. Maʼnaviy-axloqiy dunyoqarash shaxsning oʻzini anglash, jamiyatga munosabati, hayot mazmuni, qadriyatlarni idrok etish

---

<sup>11</sup> Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф «Ийман, Ислам, Куръан» Издательство «HILOL NASHR» Ташкент. 2013 ISBN: 978-9943-4158-9-8 с 78

jarayonlarida asosiy determinant sifatida namoyon bo‘lib, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. Ushbu kategoriya tarixan shakllangan axloqiy me‘yorlar, an‘analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarkib topadi va har bir davrning o‘ziga xos ijtimoiy-ma‘naviy kontekstida yangilanib boradi. Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda mazkur tushuncha shaxs va jamiyat dialektikasida muhim poydevor bo‘lib, uning faol ijtimoiylashuvi, ma‘naviy immuniteti va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasini belgilaydi.

Bobning keyingi qismida raqamli texnologiyalar fenomeni alohida falsafiy va ontologik tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar – bu faqat texnik taraqqiyot emas, balki insoniyat ongining yangi bosqichi, axborotga munosabat va ijtimoiy tajribaning transformatsiyasidir. Raqamli muhit sharoitida axborotning tezkorligi, ommaviyligi va ochiqligi yosh avlod ongiga o‘ziga xos ta‘sir ko‘rsatadi. Virtual haqiqat, sun‘iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn kommunikatsiya vositalari yoshlarning o‘zini anglash, ijtimoiy rol va identitetlarini shakllantirish, qadriyatlar tizimini qayta ko‘rib chiqish jarayonini tezlashtirmoqda. Raqamli muhit insoniyat oldiga yangi axloqiy muammolar – kiberbulling, feyk axborot, shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot xavfsizligi masalalarini ham olib chiqadi. Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar fenomenini chuqur ontologik va ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish zamonaviy yoshlar tarbiyasi va ularning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy asosi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi paragraf doirasida yoshlarning raqamli ijtimoiylashuvi va ma‘naviyatining transformatsiyasi masalalari keng yoritiladi. Raqamli ijtimoiylashuv – bu yosh avlodning ijtimoiy institutlar bilan munosabatlari, axborot almashinuvi va muloqotining zamonaviy shaklidir. Yoshlarning o‘zaro raqamli tarmoqlarda do‘stlik, hamkorlik va identitet shakllantirishi, onlayn submadaniyatlarning paydo bo‘lishi, global tarmoq orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni egallash jarayonlari har qachongidan tez va ko‘lamli tus olmoqda. Bu jarayon bir tomondan yoshlar ongini ochiq, moslashuvchan va innovatsion qilsa, ikkinchi tomondan, ayrim axloqiy xavflarga ham yo‘l ochadi. Natijada, ma‘naviyat va axloqiy dunyoqarash yangi raqamli makonda qayta shakllanadi: axborot tanlovi, “ijtimoiy filtrlar”, virtual muloqot va global raqamli submadaniyatlar yoshlarning qadriyatlar tizimiga kuchli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mahalliy va milliy an‘analar raqamli makonda o‘z ifodasini topmoqda va ularni saqlash va rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochilmoqda.

Bob yakunida raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning ma‘naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda nazariy-metodologik asoslarni kompleks yoritish, zamonaviy axborot va texnologik muhitning yoshlar ongiga va ma‘naviyatiga ko‘rsatadigan ijtimoiy-falsafiy ta‘sirini aniqlash muhimligi asoslanadi. Bu esa, kelgusida yosh avlodni raqamli transformatsiyalar davrida barqaror va innovatsion ma‘naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashda nazariy va amaliy jihatdan mustahkam poydevor yaratadi.

Zamonaviy falsafiy fikr va qarashlarda virtual haqiqat tushunchasi keng muhokama qilinib, tabiiy mavjudlik, vaqt, makon va haqiqatning o'zi qanday o'zgarishga uchrashi haqida keng qamrovli munozaralar olib borilmoqda. Raqamli texnologiyalar vositasida shakllanayotgan mediamanzara va undagi tasvirlar, ma'lumotlar oqimi orqali inson tafakkurining rivojlanish darajadasi va ongdagi ijtimoiy konstruktarning o'zgarishi, qadriyatlar va e'tiqodning mohiyat va mazmuniga doir muosabatlar global axborotlashish sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etib turli tendensiya va munosabatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa, "shaxsiyat inqirozi va insonning o'z-o'zini anglashining raqamli jarayonlar tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishi"<sup>12</sup> ushbu jarayonda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonining avtomatlashtirilishi va robotlashtirilishi, sun'iy intellektning rivoji tufayli ijtimoiy tabaqalanishning yangicha shakllari paydo bo'layotgani ham ijobiy ham o'ziga xos salbiy jihatlarni aks ettirib ba'zi ish o'rinlarini qisqarishini keltirib chiqarayotgan bo'lsa, boshqa tarafdin yangi kasb va faoliyat turlarini paydo qilmoqda. Inson mehnatining qiymati, ijodiy salohiyati va ma'naviy qadrlning qayta ko'rib chiqilishi zaruriyat sifatida qabul qilinmoqda. Shu boisdan, raqamli texnologiyalarning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan birga, uning ijtimoiy adolatsizlik va iqtisodiy nomutanosibliklar tug'dirish ehtimoli mavjudligi masalasiga ham e'tibor berish lozim.

Ushub bobda yana bir e'tiborli jihat – inson subyektivligi, identifikatsiya va erkinlik masalasidir. Raqamli muhitda insonning "men"i virtual profillar, ijtimoiy tarmoqlardagi obrazlar orqali ifoda etilishini ko'ramiz. Shu jarayonda real hayotdagi "men" bilan raqamli dunyodagi "men" o'rtasidagi uyg'unlik yoki tafovutlar, shaxsning xususiy hayot chegarasi, uning daxlsizligi va kimligi tobora chalkash bo'lib borishi mumkin.

Axborotlardan foydalanish, ularni tahlil qilish va tadbiiq etish jarayonining jamiyatda qanday rol o'ynashini falsafiy nuqtai nazardan o'rganish yana bir ahamiyatli omillardan biridir. Ayniqsa, sun'iy intellektning rivojlanishi bilan bog'liq ekzistensial savollar – "Insonning o'rni nimada?", "Ma'naviy qadriyatlar va hissiy idrokni sun'iy intellekt to'liq almashtira oladimi?", "Texnologik taraqqiyot jamiyat rivoji uchun xizmat qiladimi yoki kishining tabiiy mavjudligini cheklab qo'ladimi?" kabi savollar axborot asrida tobora dolzarblashib bormoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Yoshlarning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyat va xavflar**" deb nomlangan. Mazkur bobda raqamli texnologiyalarning yoshlar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi imkoniyat va xavflari keng qamrovda tahlil etildi. Mazkur bob zamonaviy raqamli jamiyatda shakllanayotgan yangi sotsial muhitlar, algoritmik boshqaruv va axborot oqimi,

---

<sup>12</sup> Цуркан Д.А. Проблема человеческого конституирования и личностного самоопределения в цифровую эпоху риска : диссертация ... кандидата философских наук. - Курск, 2020. - 179 с.

virtual platformalardagi submadaniyatlar, yoshlarning axloqiy tanlovi va raqamli xavfsizligi, shuningdek, xalqaro va milliy tajribalarning umumiy xususiyatlari hamda ijtimoiy-falsafiy asoslarini chuqur ochib beradi.

Bobning birinchi bo‘limida — raqamli ijtimoiylashuv muhitlariga to‘xtalib, zamonaviy internet platformalari, algoritmik mexanizmlar va virtual submadaniyatlar yoshlarning axloqiy-ijtimoiy shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani keng tahlil qilinadi. Yangi raqamli platformalar (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, forumlar, onlayn o‘yinlar va boshqalar) shunchaki kommunikatsion vosita emas, balki yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy makon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Algoritmik mexanizmlar esa axborotni individual yoki guruhij darajada “filtrlash”, “shaxsiylashtirish” orqali inson ongiga, qadriyat va tanlovlariga bilvosita ta’sir o‘tkazadi. Shu bilan birga, har bir platforma atrofida o‘ziga xos submadaniyatlar shakllanadi — ular yoshlarning o‘zini anglash, sotsial rol va identitetlarini namoyon qilishda muhim ijtimoiy-psixologik vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bobda aynan mana shu virtual submadaniyatlarning ijobiy va salbiy jihatlari, ular orqali axloqiy va ma’naviy qadriyatlarning shakllanish mexanizmlari ochib beriladi.

Ikkinchi bo‘limda — raqamli muhit sharoitida yoshlarning axloqiy tahdid va muammolari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy raqamli makonda yoshlar nafaqat yangi bilim va imkoniyatlarga ega bo‘lishmoqda, balki bir qator jiddiy xavf-xatarlarga ham duch kelmoqda. Bobda kiberzo‘ravonlik, feyk axborot, ma’naviy manipulyatsiya, soxta qadriyatlar, internet-addiksiya, axborot zo‘ravonligi, raqamli shaxsiylik inqirozi va axloqiy dezorientatsiya kabi salbiy jarayonlar chuqur o‘rganiladi. Bunda yoshlarning raqamli muhitda o‘z axloqiy immuniteti, tanqidiy tafakkuri va raqamli madaniyatini rivojlantirish zaruriyati asoslab beriladi. Xususan, zamonaviy raqamli xavfsizlik, internet etiketi, shaxsiy axborotlarni himoya qilish, onlayn manipulatsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish bugungi pedagogika va jamiyat oldidagi muhim vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Bobning uchinchi bo‘limi — xalqaro va milliy tajribada raqamli tarbiyaning ijtimoiy-falsafiy asoslari masalasiga bag‘ishlanadi. Bu bo‘limda turli davlatlar va madaniyatlar kontekstida raqamli tarbiyaning ilmiy-nazariy va amaliy modellari, ular asosidagi ijtimoiy-falsafiy tamoyillar, pedagogik yondashuvlar va huquqiy asoslar o‘rganiladi. Xalqaro tajriba misolida raqamli savodxonlik, mediamadaniyat, axloqiy-kompetensiyalarni rivojlantirish, yoshlarni virtual muhitda himoya qilish, raqamli fuqarolik va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning samarali metodlari ko‘rsatib beriladi. Milliy tajribada esa O‘zbekiston ta’lim va tarbiya tizimida raqamli transformatsiyaning zamonaviy yo‘nalishlari, huquqiy-me’yoriy baza, pedagogik innovatsiyalar va yoshlar ma’naviy salomatligini ta’minlash mexanizmlari keng yoritiladi.

XX asr oxiridan boshlab axborot-kommunikatsiya vositalari jadal rivojlandi, internet global tus oldi va kompyuterlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Keyinchalik mobil aloqa vositalari, smartfonlar, planshetlar va ijtimoiy tarmoqlar paydo bo‘lishi yoshlar oldida yangidan-yangi imkoniyatlarni

ocha boshladi. Natijada, jamiyatning ijtimoiy-madaniy, ma'naviy – ma'rifiy hayotida yangicha tendensiyalar virtual olamni shakllanishi, onlayn platformalarni kirib kelishi, muloqot va munosabatlarning innovatsion shakllarining paydo bo'lishi o'z navbatida o'zining asl qiymatlarini o'zgartirib yubordi. Natijada, “jamiyat va insonlar taraqqiyotining asosi bo'lgan iqtisodiyotning globallashuvi oxirgi manzilga yetib, yer yuzida yagona iqtisodiy makon batamom qaror topganidan keyin ma'naviyat, axloq va millatlar ham iqtisodiyotning hukmiga bo'ysunmaslikning imkoniyati qolmaydi va yagona ma'naviyat, yagona axloq va yagona millatning shakllanish jarayonining oldini olib bo'lmaydi”<sup>13</sup>. Raqamli jamiyatda globallashuv, axborotlashtirish, virtualizatsiya jarayonlari asosan odamlar hayotidagi o'ziga xos qadriyatlar tizimini tubdan o'zgarishiga olib keladi. Bu hodisalar tevarak-atrofdagi voqelikni tubdan o'zgartiradi, hozirgi davrdagi inson qadri fenomenini asosini belgilab beradi va aytish mumkinki, konstruktiv yondashuv asosida yangi dunyo va yangi shaxs dunyoqarashini shakllantiradi. Bugungi kunda inson hayotining barcha jabhalarini raqamli muhit qamrab olmoqda. Raqamli ijtimoiylashuv atamasi zamonaviy falsafada insonlarning jamiyatga moslashuvi va o'z o'rnini topish jarayonining yangi, ilgari ko'rilmagan bosqichi sifatida talqin qilinadi. Bunda asosiy rolni internet platformalari, ularning ishlashini ta'minlaydigan algoritmlar va shu platformalarda yuzaga kelayotgan kichik guruhlar – submadaniyatlar o'ynaydi. Ushbu muhitda shaxsning ijtimoiylashuvi, o'zini anglash jarayoni, qadriyatlar va axloqiy mezonlarning shakllanishi o'zgacha tus olmoqda. Raqamli platformalar – bu odamlarning o'zaro muloqoti, axborot almashuvi, bilim va tajriba orttirishi uchun yaratilgan onlayn maydonlar, ya'ni ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Instagram, TikTok, va boshqalar), bloglar, forumlar, elektron ta'lim portallari va boshqa ko'plab xizmatlardir. Dastlab, platformalar insonlar o'rtasidagi masofani qisqartirish, bilim va axborotni tez tarqatish uchun yaratilgan edi. Falsafiy nuqtai nazardan, platformalar zamonaviy inson faoliyati uchun yangi “ijtimoiy makon” ochib berdi. Ularni sotsiolog olim M. Kastels “axborot jamiyati”ning asosiy negizi deb baholaydi va raqamli platformalar insonlar o'rtasidagi aloqalarning yangi, ilgari ko'rilmagan turini yaratdi, deya ta'kidlaydi<sup>14</sup>.

